

BANKING TIZIMIDA ONLAYN TO'LOV PLATFORMASINI ISHLAB CHIQISH

Hamrayeva Saida Ismailovna

TATU Urganch filiali "Axborot texnologiyalari kafedrası"
katta o'qituvchisi

Durdiyeva Saida Ruslanbek qizi

TATU Urganch filiali "Kompyuter injeniringi" fakulteti
5-bosqich talabasi

saidadurdiyeva95@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan vaqtda O'zbekistonda banking to'lovlar tushunchasi, ularning turkumlanishi, raqamli iqtisodiyotda tutgan o'rni va uning onlayn platformasini ishlab chiqish chora tadbirlari xususida so'z boradi. Biz bilamizki har bir rivojlangan davlatlar o'z fuqarolariga tezlik va shu bilan sifatli xizmatlar ko'rsatishga harakat qilib kelmoqda. Banking tizimi yordamida qilinadigan onlayn tulovlar ham ana shunday maqsadlarga xizmat qiladi. Maqolamizda shu xususda fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: Banking, elektron to'lov tizimlari, tarmoq, texnologiya, funksiya, mobil to'lov, internet, tranzaksiya,

Bugungi kun rivojlanib borayotgan zamonimizda iqtisodiyotning jadallik bilan rivojlanishi va uning tezligi, sifatini rivojlantirish maqsadida turli texnologiyalar va onlayn tizimlar keng qamrovli tarzda yo'lga qo'yilmoqda. Bugungi kunda onlayn tulovlarning rivojlanishi va uning takomillashishi natijasida iqtisodiyot va bank tizimida vaqt tejalmoqda. Onlayn-banking yoki internet-banking tizimidan keng qamrovli tarzda foydalanilib kelinmoqda. Onlayn-banking yoki internet-banking – bu internetga ulangan qurilma yordamida bank xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkonini beradigan texnologiyalarning umumiy nomi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, oddiy bank onlayn-bankingdan foydalanish imkonini taqdim etgani bilan raqamli bankka aylanib qolmaydi. Internet-ulanma yordamida faoliyat ko'rsatadigan ushbu texnologiya foydalanuvchilarni qulayliklar bilan ta'minlaydi. Bugungi kunda onlayn-bankingdan xizmat sifatida ko'plab "an'anaviy" banklar ham foydalanadi. Xo'sh, "raqamli bank" bilan oddiy bank o'rtasida qanday farq bor? Raqamli bankda istalgan xizmatdan masofada turib foydalanish mumkin. Buni chat yordamida mutaxassis bilan bog'langan holda yoki qayta aloqa onlayn shaklida amalga oshirish mumkin. "Neobank"da tezkor va qulay munosabat bildirish markazlari bo'lib, bankning kengayib boradigan filiallar tarmog'i mavjud bo'lmaydi. Bir necha filialning o'zi yetarli va hatto bosh ofissiz ham faoliyat yuritish mumkin. 2018-yil O'zbekistonda virtual banklarni ochish uchun qulay sharoitlarni yaratish yo'lida ilk qadamlar qo'yildi. Bundan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qabul qilingan Prezident farmoni dalolat beradi. Tez orada ko'plab bank va kompaniyalar innovatsion texnologiyalardan foydalanishni hamda raqamli taraqqiyotdan ortda qolmagan holda foydalanuvchilar uchun ko'proq qulayliklar yaratishni boshladi. Banking tizimini afzallik jihatlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak mijozlarga mobil ilovalar yoki veb-saytlar orqali raqamli xizmatlar taklif etish bank xizmatlarini 24/7 rejimida taqdim qilishni ko'zda tutadi. Ofislar, shtat xodimlari va texnikani saqlashga ketgan xarajatlarning kamligi evaziga tranzaksiyalarni amalga oshirish narxining 2 baravardan 16 baravargacha tushishiga erishiladi, kredit va omonatlar bo'yicha foydaliroq foiz stavkalari paydo bo'ladi. Taqdim etiladigan xizmatlarning ularning past tannarxiga perpendikulyar ravishda bo'lgan hajmini raqamli banklarning rentabelligini yuqori bo'lishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, onlayn-

banklarning asosiy afzalliklari – navbatlarsiz va qog‘ozbozliksiz bepul ulanish, har bir mijozni alohida qo‘llab-quvvatlash, “blokcheyn” texnologiyasidan foydalanish evaziga xavfsizlik. Biroq elektron banklarning kamchiliklari haqida ham gapirib o‘tish kerak. Yuqori texnologik IT ishlanmalarga e‘tibor qaratilishi bois raqamli banklarning maqsadli auditoriyasi ilg‘or yoshlar va biznesmenlar hisoblanadi. Ko‘plab nafaqadagi kishilar innovatsiyalardan foydalanishni bilishmaydi. Ular zamonaviy texnologiyalar va onlayn-banklar xizmatlaridan bexabar bo‘lganliklari sabab xizmatlardan to‘laqonli foydalana olishmaydi. Digital banklar pul amaliyotlarini internet tarmoqlari orqali amalga oshiradi. Ba‘zan ushbu operatsiyalar terminallar bo‘lmagan yoki yetarlicha bo‘lmagan sharoitda kechadi. Ba‘zi raqamli banklar plastik kartalar o‘rniga virtual kartalar joriy qiladi. Kimdir aynan shuning uchun oddiy banlarni tanlashi mumkin. Bundan tashqari, raqamli banklarning O‘zbekistonda ommalashishini sekinlashtirayotgan faktorlar ham mavjud. Bular moslashtirilmagan normativ-huquqiy baza, texnologik jihatdan yetarlicha kuchli bo‘lmagan data-markazlar, mutaxassislarning yetishmasligi, shuningdek internet bilan bog‘liq muammolar. Biroq ushbu muammolarni yechish imkoni bor, bu faqat vaqt va ba‘zi resurslarni talab qiladi. Jismoniy shaxslar hisob raqamining kirim-chiqimlarini nazorat qilish va to‘lovlarni amalga oshirish, Korporativ kartasini to‘ldirish, oylik to‘lovlar va shu kabi bir qancha xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan. "Korporativ Mobil banking" xizmat turiga ulanish juda sodda bo‘lib, buning uchun faqat bizning bankda hisob raqamingiz bo‘lishi va shu tizimda xizmat ko‘rsatish shartnomasini imzolashingiz kerak. Tizim hujjatlar to‘g‘ri to‘ldirilishini nazorat qilib, xatolarni ko‘rsatib boradi. To‘lov xabarnomalarini rasmiylashtirishda xatolikka yo‘l qo‘yib, hujjatni jo‘natgan holatingizda ham Siz uni zudlik bilan to‘xtatishingiz mumkin va bunda hisob raqami bo‘yicha operatsiya amalga oshirilmaydi. Bankka barcha turdagi moliyaviy hujjatlarni yuborish va bank bilan ma‘lumot almashish, vaqtingiz va transport xarajatlaringizni tejash; Aloqa qiluvchi tomonlar elektron raqamli imzolardan (ERI) foydalanadi. Identifikatsiyalash tizimi operatsiyani o‘tkazuvchi tomonlarning haqiqiyligini tasdiqlashni kafolatlaydi. Tomonlarning ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjatlar tomonlarning imzolari va muhrlari bilan tasdiqlangan qog‘oz hujjatlari bilan teng yuridik kuchga ega bo‘ladi. Aloqa qiluvchi tomonlar elektron raqamli imzolardan (ERI) foydalanadi. Identifikatsiyalash tizimi operatsiyani o‘tkazuvchi tomonlarning haqiqiyligini tasdiqlashni kafolatlaydi. Tomonlarning ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjatlar tomonlarning imzolari va muhrlari bilan tasdiqlangan qog‘oz hujjatlari bilan teng yuridik kuchga ega bo‘ladi. Mijoz va bank o‘rtasida operatsiyalar real vaqt rejimida o‘tkaziladi. Siz onlayn rejimda to‘lov hujjatlariga ishlov berish va bosqichlarni kuzatishingiz mumkin. Sizning manzilingizga kelgan to‘lovlar to‘g‘risida ma‘lumot bankka kelib tushishi bilan yangilanib turadi. Uzatiladigan axborotni ruxsat etilmagan tajovuzlardan himoya qilish xalqaro kriptografiya formatidan foydalanib, shifrlash bilan ta‘minlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatlarini ko‘rsatmasdan) masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bank yoki uning sho‘ba korxonasi raqamli bank hisoblanadi. Bu butun bank yoki bank filialiga berilgan ta‘rifdir. Raqamli banking bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga bank mahsulotlarini onlayn tarzda taqdim etish uchun dasturiy ta‘minot to‘plami sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. A.A.Gontarning ta‘kidlashicha, “Raqamli banking - bu bank va uning mijozlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi shakli, shu jumladan raqamli, axborot va texnologiya strategiyalari sohasidagi iste‘molchilar va tijorat mijozlari uchun moliyaviy xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Murojaatnoma 2020-yil 25-yanvar

2. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. (2021). DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN CORPORATE GOVERNANCE OF JOINT STOCK COMPANY. Экономика и бизнес: теория и практика, (3-2), 217-219.
3. Маткулиева, С., & Атабаева, К. (2022). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ ОТРАСЛЕЙ И ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ. Scientific progress, 3(2), 360-363.
4. Шеров, А. (2017). Олий таълим муассасаларига бюджетдан ташқари маблағларни жалб этишни такомиллаштириш. " Biznes-Эксперт", (3 (111)), 3. 5. Gontar A.A. Digital banking as one of the components of the economic security of a credit organization// Bulletin of the Volzhskiy University im. VN Tatishcheva. – 2017. – Т.1. - но. 4
5. www.Anorbank.uz – “Anor bank” AJning rasmiy sayti
6. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi